UO‘K 94 (575.1)

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SOVET DAVLATIDAGI SOLIQ SIYOSATI

M.G‘. Abdullayev, Sh.A. Toshmatov

Maqolada 1941–1945-yillarda fashizmga qarshi olib borilgan urush davrida sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan soliq siyosati va uning xususiyatlari tahlil etilgan. Urush yillarida yangi joriy etilgan soliq va yig‘imlar, ularning miqdori, aholining turli qatlamlariga yuklatilgan soliq majburiyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan, aholidan yig‘ilgan soliq tushumlarining mamlakat yalpi byudjetida tutgan salmog‘i tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: *soliq, soliq siyosati, davlat byudjeti, harbiy soliq, qishloq xo‘jalik solig‘i, daromad solig‘i, soliq to‘lovchi, kolxozchi, yakka dehqon xo‘jaligi, harbiy xizmatchi, ixtiyoriy to‘lov.*

В статье анализируется налоговая политика, проводившаяся советским правительством в период войны против фашизма в 1941–1945 гг., и ее особенности. Приведены сведения о вновь введенных налогах и сборах в годы войны, размерах налогов и налоговых повинностях, возложенных на различные слои населения. Показан удельный вес налоговых поступлений, собираемых с населения, в валовом бюджете страны.

Ключевые слова: *налог, налоговая политика, государственный бюджет, военный налог, сельхозналог, подоходный налог, налогоплательщик, колхозник, единоличное хозяйство, военнослужащий, самообложение.*

Ikkinchi jahon urushi sovet mamlakati xalq xo‘jaligini tubdan o‘zgartirib, sovet rahbariyatini moliya va soliq siyosatiga muhim o‘zgartirishlar kiritishga majbur qildi. Nemis-fashistlari SSSRning g‘arbiy hududlarini bosib olishi munosabati bilan mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari keskin qisqardi. Fashistlar bosib olgan hududlardan turli korxona va tashkilotlar, milliy boyliklar hamda aholini mamlakatning sharqiy mintaqalariga evakuatsiya qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi, xalq xo‘jaligini harbiy asosda qayta tashkil etila boshlandi. Urush munosabati bilan davlat byudjeti daromadlari 1940-yildagi 180 mlrd. rubldan 1942-yilda 165 mlrd. rublga qisqardi, shu jumladan, sotsialistik ishlab chiqarish daromadlari 158 mlrd. rubldan 108 mlrd. rublga kamaydi. Urush yillarida pul muomalasining buzilishi, ortiqcha inflyatsiya, narxlarning keskin oshishi (ayrim mahsulotlar va tovarlarning narxi 10–15 barobar oshdi), rublning xarid qilish quvvati pastlab ketish holatlari kuzatildi. Nisbatan qisqa muddatlarda urush sharoitida yaratilgan iqtisodiy salohiyat, aholi mablag‘larining umumiy ishlab chiqarishga keng jalb etilishi bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar, iqtisodiy-moliya sohasidagi ulkan talafotlarga qaramasdan, SSSR moliya tizimining barqarorligini ta’minlay boshladi.

Bu davrdagi moliyalashtirishning asosiy manbalari davlat korxonalaridan keladigan daromadlar, birlamchi zarur oziq-ovqat mahsulotlari (spirtli ichimliklar, tamaki, parfyumeriya va boshqalar) narxlarining ko‘tarilishi, turli soliq va to‘lovlarni oshirish, davlat zayomi va aholidan olinadigan boshqa ixtiyoriy yig‘imlarning joriy etilishi bo‘ldi. Davlat byudjetining xarajatlar qismi 1942-yilda 1940-yildagi 174,3 mlrd. rubldan 182,8 mlrd. rublgacha o‘sdi. Jumladan, harbiy xarajatlar 56,7 mlrd. rubldan 108,4 mlrd. rublgacha ko‘tarildi. Mazkur xarajatlar uchun yetishmayotgan mablag‘lar pul emissiyasi va davlat zaxiralaridan foydalanish hisobidan qoplandi. Xarajatlarni qattiq tejash tartibi joriy etildi va xarajatlarning har bir so‘mi nazoratga olindi [1. B. 504]. Harbiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun qo‘shimcha mablag‘larni izlab topish zarurati hukumatni SSSR Davlat byudjeti daromadlarida soliqlar ulushini keskin oshirishga majbur qildi. Urush yillarida davlat aholi uchun joriy etilgan soliq majburiyatlari miqdorini oshirish va yangi soliq turlarini joriy etish hisobiga ushbu byudjet resurslari man-

basining ulushini sezilarli darajada oshirishga erishdi.

Davlat byudjetida soliq tushumlarining o‘sishi aholining soliq to‘lovlari bo‘yicha mas’uliyatini kuchaytirish, soliq stavkalarini oshirish, soliq to‘lovchilar doirasini kengaytirish, soliq solinadigan daromadlarni to‘liq va aniq hisobga olish tamoyillarini o‘zgartirish orqali erishildi [2. B. 232]. Urushning ilk davrida soliq va yig‘imlar samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan muayyan chora-tadbirlar ko‘rildi. 1941-yil 3-iyulda SSSR Oliy Soveti Prezidiumi “Urush davrida qishloq xo‘jaligi solig‘i va aholining daromad solig‘iga vaqtincha stavkalar belgilash to‘g‘risida” Farmon chiqardi. Mazkur farmonga muvofiq qishloq xo‘jaligi solig‘i va aholining daromadlaridan olinadigan soliqlarga vaqtinchalik ustamalar joriy etildi. Chunonchi, to‘lov uchun taqdim etilgan qishloq xo‘jaligi solig‘iga 100 foiz miqdorida, daromad hajmiga qarab daromad solig‘i summasining 50 foizidan 200 foizigacha miqdorda ustamalar belgilandi [3. B. 358].

Ishchi va xizmatchilar (harbiy chaqiriqqa aloqasi bo‘lmagan) daromad soliqlariga ustama daromad solig‘ining oz-ko‘pligiga qarab belgilandi. Ya’ni, 300 rubldan 500 rublgacha bo‘lgan oylik ish haqi uchun daromad solig‘ining 50 foizi miqdorida, 500 rubldan 600 rublgacha bo‘lgan oylik ish haqi uchun daromad solig‘ining 75 foizi miqdorida, 600 rubldan oshiq oylik ish haqi uchun daromad solig‘ining 100 foizi miqdorida ustama belgilandi. Soliq ustamasidan oyiga 300 rubldan oz ish haqi olayotgan ishchi-xizmatchilar ozod qilindilar.

Yangi tartibda harbiy xizmatchilari bo‘lgan kolxozchilar va yakka xo‘jalik oilalariga imtiyozlar berildi: oilaning bitta a’zosi harbiy xizmatchi bo‘lgan holda ushbu oilaning qishloq xo‘jaligi solig‘iga belgilangan ustamaning 50 foizidan ozod qilindi, ikki va undan ortiq harbiy xizmatchilar mavjud bo‘lgan oilalar esa soliq ustamasidan to‘liq ozod qilindi [1. B. 505–506]. Byudjetga soliq to‘lovlarining tushishini tezlashtirish maqsadida 1941-yilda qishloq xo‘jaligi solig‘ini to‘lash muddati bir oy oldinga ko‘chirildi. Aholidan olinadigan daromad solig‘iga ustamalar miqdori ishchi va xizmatchilarning oylik ish haqiga qarabgina emas, balki soliq to‘lovchilar toifasiga qarab ham farqlangan: birinchi toifaga ishchilar, xizmatchilar va ularga tenglashtirilgan shaxslar kiritilgan; ikkinchi toifaga esa boshqa barcha daromad solig‘i to‘lovchilar kiritildi. Har bir toifa ichida ustamalar miqdori soliq to‘lovchining haqiqiy harbiy xizmatga aloqadorligiga bevosita bog‘liq bo‘lgan. Bu esa ustama joriy etishning asosiy xususiyatini tashkil etgan.

Aholi uchun joriy etilgan daromad solig‘i alohida qiziqish uyg‘otadi. Daromad solig‘idan oyiga 150 rublgacha miqdorda ish haqi olayotgan ishchi va xizmatchilar ozod qilinganlar. Daromad solig‘i stavkasi quyidagicha tatbiq etilgan: 151 rubldan 200 rublgacha oylik ish haqi olayotganlar uchun – 5,5 foiz; 201 rubldan 300 rublgacha oylik ish haqi olayotganlar uchun – 6 foiz; 301 rubldan 400 rublgacha oylik ish haqi olayotganlar uchun – 7 foiz; 401 rubldan 500 rublgacha oylik ish haqi olayotganlar uchun – 8 foiz; 501 rubldan 700 rublgacha oylik ish haqi olayotganlar uchun – 10 foiz; 701 rubldan 1000 rublgacha oylik ish haqi olayotganlar uchun – 12 foiz; 1001 rubldan ortiq oylik ish haqi olayotganlar uchun – 13 foiz. Ko‘rinib turganidek, daromad solig‘ining eng yuqori stavkasi 13 foizni tashkil etgan va eng yuqori maosh oluvchi xodimlar, ishchi-xizmatchilar oylik ish haqlarining 13 foiz qismini daromad solig‘i uchun to‘lagan [4. B. 97].

1941-yilda qishloqda ixtiyoriy to‘lovlar (“samooblojenie”) natijasida yig‘ilgan mablag‘larning 75 foizini ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirish uchun mahalliy byudjetlarga yo‘naltirish bo‘yicha qaror qabul qilindi. Bu esa mazkur maqsadlar uchun ajratilayotgan davlat byudjeti mablag‘larini harbiy ehtiyojlar uchun yo‘naltirish imkonini berdi [5. B. 305–309]. Urush sharoitida hukumat soliqlar bazasini kengaytirishga, xususan, fuqarolarning oilaviy holatini to‘liq e’tiborga olish hisobiga kengaytirishga majbur bo‘ldi. Urushga qadar mavjud soliq tizimi bozor daromadlarini to‘liq darajada hisobga olish imkonini bermagan. Urushning birinchi bosqichida davlat-kooperativ savdosi hajmining qisqarishi hisobiga bozor savdosi o‘sib, bozor narxlarining keskin o‘sishi natijasida bozorlar daromadlari ham keskin oshgan. Shunga bog‘liq ravishda daromadlarning ushbu toifasiga soliq solish bo‘yicha urush sharoitida o‘ziga xos o‘zgartirishlar kiritilib, qo‘shimcha soliq turi joriy etildi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1941-yil 21-noyabrdagi “SSSRning yolg‘iz, farzandsiz va bo‘ydoq fuqarolari uchun soliqlar to‘g‘risida” farmoni 20 yoshdan yuqori, yolg‘iz yoki bolalari

bo‘lmagan shaxslarga taalluqli edi. 50 yosh va undan yuqori yoshdagi erkaklar, 45 yosh va undan yuqori yoshdagi xotin-qizlar ushbu soliq majburiyatidan ozod qilingan. 1944-yildan boshlab daromad solig‘i solinadigan shaxslar farzandsiz bo‘lgan taqdirda oylik ish haqining yoki yillik daromadning 6 foizi miqdorida, soliq to‘lovchining bitta farzandi bo‘lgan taqdirda 1 foizi miqdorida, ikkita farzandi bo‘lgan taqdirda oylik yoki yillik daromadining 0,5 foizini yuqorida aytilgan yangi soliq sifatida to‘lagan. Bu soliq stavkalari kooperativlarga a’zo bo‘lmagan hunarmand-kosiblarga hamda daromad solig‘i solinadigan mustaqil daromad manbalariga ega bo‘lgan boshqa fuqarolarga ham tatbiq etildi. Qishloq xo‘jaligi solig‘i to‘lovchi fuqarolardan yuqoridagi soliq farzandsiz bo‘lgan taqdirda yiliga – 150 so‘m, bitta farzandi bo‘lgan taqdirda – 50 so‘m, ikkita farzandi bo‘lgan taqdirda yiliga 25 so‘m miqdorida undirilishi belgilangandi [5. B. 225]. Mustaqil daromad manbalariga ega bo‘lmagan fuqarolar esa yiliga tegishli ravishda 90, 30, 15 so‘m miqdorida soliq to‘lashi lozim edi. Davlat bo‘ydoqlar, yolg‘iz fuqarolar va farzandsiz oilalar uchun soliq joriy etish bilan bir paytda ko‘p bolali oilalar va yolg‘iz onalarga beriladigan davlat nafaqalari miqdorini ham oshirdi, onalik va bolalikni muhofaza qilish muassasalari qurilishi va ta’minoti holatini ham yaxshiladi. 1945-yilda ushbu soliqlarning yig‘ilishi hisobiga mamlakat byudjetiga qo‘shimcha ravishda 3,4 mlrd. so‘m tushdi. Bundan ko‘p bolali va yolg‘iz onalarga beriladigan davlat nafaqalari 2,1 mlrd. rublni tashkil etdi, 2,1 mlrd. rubldan ortgan byudjet mablag‘lari esa onalik va bolalikni muhofaza qilish muassasalari ehtiyojlariga yo‘naltirildi [6. B. 226].

Bo‘ydoq, yolg‘iz va farzandi bo‘lmagan fuqarolarga soliq joriy etilishi urush davrida yetim qolgan minglab bolalarni qo‘llab-quvvatlash, urushda boquvchisini yo‘qotgan yolg‘iz onalarga beriladigan nafaqalarni oshirish zarurligi bilan izohlanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, soliq tushumlari juda katta edi. Mazkur soliq joriy etilishining vaqtinchalik xususiyatiga qaramay, u uzoq vaqt davomida, 1990-yillarning boshlarigacha saqlanib keldi.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1941-yil 29-dekabrdagi “Harbiy soliq to‘g‘risida”gi farmoni bilan alohida harbiy soliq joriy etildi. Bu soliq SSSRning 18 yoshga to‘lgan barcha fuqarolari tomonidan (ularda daromad manbalari bor-yo‘qligidan qat’i nazar) to‘lanishi majburiy edi. Istisno keksa kishilar (60 va undan yuqori yoshdagi erkaklar, 55 va undan yuqori yoshdagi ayollar) va pensionerlarga nisbatan belgilangan bo‘lib, agar ularda mustaqil daromad manbalari mavjud bo‘lgan taqdirdagina harbiy soliq to‘lar edilar. Harbiy soliq to‘lashdan harakatdagi qizil armiya safida xizmat qilayotgan askarlar, ofitserlar, harbiy xizmatchilarning oila a’zolari, davlatdan nafaqa olayotgan kishilar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari ozod qilingan. Kolxozchilar va yakka dehqon xo‘jaliklari yiliga 150 rubldan 600 rublgacha bo‘lgan qat’iy stavkalar bo‘yicha soliq to‘lashi belgilangan, ular rayonlar bo‘yicha tabaqalashtirilgan. Ishchilar va xizmatchilardan, ularga tenglashtirilgan shaxslardan harbiy soliq ularning asosiy ish joyi bo‘yicha ham, o‘rindoshlik asosida ishlayotgan joyi bo‘yicha ham ish haqi miqdoriga qarab olingan. Biroq har bir to‘lovchi uchun harbiy soliqning umumiy summasi yiliga 4050 rubldan, harbiy xizmatga chaqiruv yoshidagi shaxslar uchun 2700 rubldan oshmasligi kerak edi. Hunarmandlardan, kosiblardan, yollanma mehnatga asoslanmagan holda daromad topayotgan turli inshoot egalaridan harbiy soliq ishchi va xizmatchilarga belgilangan summaning uch barobari miqdorida belgilangan. Harbiy soliqning umumiy yillik summasi joriy yil uchun belgilangan daromad solig‘i summasidan kam bo‘lmasligi kerak edi. Mustaqil daromad manbasi bo‘lmagan va boshqa bir kishining qaramog‘ida yashayotgan shaxslar uchun 100 rubl miqdoridagi maxsus stavka belgilandi. Harbiy soliqning joriy etilishi bilan 1941-yil 3-iyulda joriy etilgan qishloq xo‘jaligi solig‘i va aholining daromad solig‘iga belgilangan ustamalar bekor qilindi [3. B. 358].

Shu tariqa, harbiy soliq shahar va qishloq aholisidan, shuningdek, mustaqil daromad manbalariga ega bo‘lgan fuqarolardan hamda birovning qaramog‘ida yashab kelayotgan kishilardan ham undirilishi belgilandi. Bu tartibda harbiy soliq to‘lash majburiyatidan daromad solig‘i va qishloq xo‘jaligi soliqlarini to‘lashdan ozod qilingan kishilarga nisbatan ancha kam kishilar ozod qilindi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlarining oshishi va kolxozchilar hamda yakka dehqon xo‘jaliklari tomorqa xo‘jaligidan olinayotgan daromadlarning oshishi muno-

sabati bilan 1942-yilda qishloq xo‘jaligi solig‘i belgilanadigan daromad normalari o‘zgartirildi. Chunki urushdan oldin belgilangan ushbu normalar urush davrida dehqonlarning daromadlari miqdoriga mos kelmay qolgan edi. 1943-yil iyunida daromad normalari taxminan 3–4 barobar oshirildi. Qishloq xo‘jaligi soliqlaridan tushgan tushumlar 1942-yildagi 2,1 mlrd. rubldan 1945-yilda 5,6 mlrd. rublgacha oshdi, chunki 1945-yilda daromadlilik normalarining oshishi bilan yuqori daromadli guruhlar uchun o‘sib boradigan soliq stavkalar jadvali qayta ishlab chiqilgan edi [6. B. 234–239].

Urush sharoitida yakka dehqon xo‘jaliklari uchun qishloq xo‘jaligi solig‘i stavkalarini hisoblash jadvali quyidagicha bo‘lgan:

Yakka xo‘jaliklarning soliqqa tortiladigan daromad miqdori	**Yakka xo‘jalik uchun soliq miqdori**
2000 rublgacha	Daromadning har bir rubliga 8 tiyindan
2001 rubldan – 3000 rublgacha	160 rubl + daromadning har bir rubliga 10 tiyindan
3001 rubldan – 4000 rublgacha	260 rubl + daromadning har bir rubliga 12 tiyindan
4001 rubldan – 5000 rublgacha	380 rubl + daromadning har bir rubliga 16 tiyindan
5001 rubldan – 6000 rublgacha	540 rubl + daromadning har bir rubliga 20 tiyindan
6001 rubldan – 8000 rublgacha	740 rubl + daromadning har bir rubliga 24 tiyindan
8000 rubldan ortiq daromadga	1220 rubl Q daromadning har bir rubliga 30 tiyindan [7. B. 19].

Qishloq xo‘jaligi solig‘ini to‘lashda soliq miqdori oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishiga muvofiq ravishda ko‘payib borgan. Ayni paytda, qishloq xo‘jaligi solig‘i oilada harbiy xizmatga chaqiriluvchi bor-yo‘qligiga qarab belgilangan. Agar bitta oiladan ikki yoki undan ortiq kishi harbiy xizmatga olingan bo‘lsa, bu oila qishloq xo‘jaligi solig‘idan butunlay ozod qilingan.

Kolxozlar uchun qishloq xo‘jaligi solig‘i miqdori har bir gektar ekin maydonida yetishtiriladigan muayyan mahsulot turining davlat xarid narxlaridan kelib chiqib belgilangan. Ya’ni, bunda yetishtiriladigan turli qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga turlicha summada soliq belgilangan. Quyidagi jadvalda 1943-yilda Andijon oblasti rayonlarida bir gektar yerdagi turli qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan olinadigan daromad summalari normasi aks etgan.

1-jadval

1943 yilda Andijon oblasti rayonlarida qishloq xo‘jaligi solig‘i bo‘yicha mahsulotlar daromadlari [8. B. 143]

№	**Rayonlar**	**Har gektar yerdan (rubl)**				
		kartoshka	poliz va rezavor	donli ekinlar	bog‘lar	uzumzor
1	Oyim	9000	18000	3200	14900	15400
2	Oltinko‘l	14700	26000	4000	25400	26400
3	Andijon	14700	26000	4800	25400	26400
4	Baliqchi	9000	16600	3200	14900	15400
5	Voroshilov	12400	22000	4800	23300	24200
6	Jalolquduq	12400	22000	4800	23300	24200
7	Izboskan	12400	20000	4800	17000	17000
8	Lenin	12400	22000	3600	23300	23300
9	Marhamat	9000	18000	2800	14900	15400
10	Paxtaobod	10200	18000	4800	17000	17600
11	Stalin	11300	20000	3600	23300	23300
12	Chinobod	9000	16600	3200	14900	15400
13	Xo‘jaobod	10200	18000	3600	17000	17600
14	Xoldevonbek	11300	20000	3600	14900	23300

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, tegishli rayonlar uchun turlicha daromad normalari belgilangan bo‘lib, unda tegishli rayondagi ekin maydonining hosildorligi, ekin navlari kabi jihatlar e’tiborga olingan.

1942-yil 10-sentyabrda SSSR Oliy Soveti Prezidiumi mahalliy byudjetlar bazasini mustahkamlash maqsadida “Tomoshalardan soliq undirish to‘g‘risida” farmon chiqardi.

Bu soliq davlat, kooperativ va jamoat tashkilotlaridan, shuningdek, alohida shaxslardan ular tashkil etadigan ko‘rgazmalar, ma’ruzalar va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarga tashrif buyurgan kishilar sonidan kelib chiqib undirilishi ko‘zda tutildi. Soliq stavkalari tabaqalashtirilgan bo‘lib, ma’ruzalar, ko‘rgazmalar va muzeylardan keladigan daromadning 5 foizi miqdorida, totalizatorlardan keladigan daromadning 60 foizigacha bo‘lgan miqdorda belgilangan.

SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1945-yil 1-avgustdagi “Qizil Armiyadan demobilizatsiya qilinganlar va ularning oila a’zolari uchun soliq imtiyozlarini saqlash to‘g‘risida” qarori urush ishtirokchilari uchun hukumatning alohida e’tibori bo‘ldi. Ushbu qarorga binoan, urushdan qaytib kelganlar oilasi uchun qishloq xo‘jaligi solig‘i qonuni bo‘yicha joriy etilgan avvalgi imtiyozlar saqlab qolindi. 1945-yilda harbiy xizmatdan qaytib kelgan kishilar qaytib kelgan kunidan boshlab bir yil muddatga soliqlardan ozod qilindi. Shuningdek, bo‘ydoqlik solig‘i bo‘yicha imtiyozlar ham shuncha muddatga saqlab qolindi [9. B. 158].

SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1944-yil 28-apreldagi “Soliq qarzlarini undirish bo‘yicha majburlov choralarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida”-gi qarori to‘lov majburiyatlari intizomini mustahkamlashda davlat uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu qaror moliya organlariga to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirmagan soliq to‘lovchilarning mol-mulkini ro‘yxatga olish imkonini berdi, bu tadbir qarzdorning ishi xalq sudiga o‘tkazilgunga qadar amalga oshirilar edi. Ayrim hollarda soliq qarzlarini undirish bo‘yicha majburlov choralarining qo‘llanishi tabiiy ravishda byudjetga mablag‘lar tushumining ko‘payishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ya’ni, ayrim hollarda soliqlardan qarzdor kishilarning mol-mulki sud qarori bilangina emas, balki mahalliy soliq idoralari tomonidan ham musodara qilinar edi. Davlat soliq to‘lovlari intizomini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar qatoriga SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1942-yil 24-noyabrdagi “Kolxozlar va yakka dehqon xo‘jaliklari tomonidan davlatga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini majburiy yetkazib berishni bajarmaganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida” qarorini ham kiritish mumkin. Ushbu qaror xalq sudlariga urush sharoitida davlat majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaganlik uchun kolxoz va yakka dehqon xo‘jaliklariga o‘z vaqtida yetkazib berilmagan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozor qiymatining ikki baravarigacha miqdorda jarima solish huquqi berilgan. Yetkazib berilmagan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tani va jarimasini undirish moliya organlari zimmasiga yuklatilgan [10. B. 407–408].

Urush yillarida aholi tomonidan Qizil Armiya fondiga va Mudofaa fondiga turli mablag‘ va badallar to‘lashi keng ommalashdi. 1941–1945-yillarda byudjetga 111,7 milliard rubllik aholi mablag‘lari yo‘naltirildi. Bundan tashqari, hukumat davlat zayomlari hisobidan aholining qo‘lidagi juda katta mablag‘larni harbiy ehtiyojlar uchun jalb qildi. Ya’ni, urush yillarida davlat tomonidan turli qiymatlardagi qimmatbaho qog‘ozlar (davlat zayomi) chiqarilgan bo‘lib, aholi vakillari qo‘lida mavjud naqd pullari yoki ish haqlari hisobidan bu qog‘ozlarni sotib olar edi. Urush yillarida davlat zayomlari yordamida 113,9 milliard rubl aholi mablag‘lari jalb qilindi, bu urush davri byudjeti barcha daromadlarining 10,2 foizini tashkil etdi [11. B. 312–314]. Albatta, davlat zayomi pulning qadrsizlanishi oldini olishda ham juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

1945-yil uchun Andijon viloyatining byudjeti 94 million 380 ming rubl miqdorida belgilangan bo‘lib, ushbu byudjetda soliqlar va yig‘imlar quyidagicha salmoqqa ega bo‘lgan:

1. Qurilishlardan olinadigan soliq – 1 040 000 rubl.
2. Yer rentasi – 1 210 000 rubl.
3. Trasport vositalari solig‘i – 15 000 rubl.
4. Chorva hayvonlari egalaridan yig‘im – 98 000 rubl.
5. Kolxoz bozorlaridan bir martalik yig‘imlar – 30 100 000 rubl.
6. Kinoustanovkalar solig‘i – 3 300 000 rubl.
7. Turli tomoshalardan olinadigan soliq – 570 000 rubl.
8. Notovar operatsiyalar solig‘i – 1 750 000 rubl.
9. Kolxozlarning daromad solig‘i – 5 517 000 rubl.

10. Aholining daromad solig‘i – 11 70 000 rubl.

11. Qishloq xo‘jaligi solig‘i – 2 247 000 rubl.

12. Aylanma mablag‘lar solig‘i – 3 486 000 rubl.

13. Otlar uchun davlat solig‘i – 7 000 rubl.

14. Harbiy soliq – 2 904 000 rubl.

15. Davlat zayomlari daromadlari – 21 597 000 rubl.

16. Kooperativlarning daromad solig‘i – 5 208 000 rubl.

17. Davlat bojlari – 800 000 rubl.

18. Ixtiyoriy to‘lovlar – 1 000 000 rubl.

Jami soliq va to‘lov summasi: 82 019 000 rubl [12. B. 56].

Ko‘rinib turganidek, Andijon oblastining 1945-yil uchun belgilangan 94 million 380 ming rubllik davlat byudjetining 82 million 19 ming rublini yoki 86,9 foizini aholidan undiriladigan soliq va turli to‘lovlar tashkil qilgan.

Xullas, urush yillarida aholidan olinayotgan soliqlar miqdori 4,2 barobarga, davlat tashkilotlaridan olinayotgan soliqlar esa atigi 21,4 foizga oshdi. Urush sharoitida harbiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun byudjet daromadlaridagi mablag‘larni safarbar etish zarurati hukumatning byudjetdagi soliqlar ulushini asosan aholidan to‘lovlar hisobiga oshirishiga turtki bo‘ldi. Aholidan olinadigan soliq tushumlarining o‘sishi soliq stavkalarini oshirish, yangi soliqlarni joriy etish, soliq to‘lovchilar kontingentini kengaytirish, barcha turdagi soliq imtiyozlarini bekor qilish hisobiga ta’minlandi.

Umuman olganda, urush yillarida butun mamlakat bo‘yicha aholi tomonidan 133 milliard rubl miqdorida soliq va turli yig‘imlar to‘landi, bu barcha byudjet daromadlarining 11,9 foizini tashkil etdi [13. B. 275–276]. Shunday qilib, sovet davlatining moliya tizimi va Ikkinchi jahon urushi davridagi soliq tizimi o‘zining samaradorligi va hayotiyligini ko‘rsatdi. Bu davlatga mamlakatni himoya qilish va og‘ir urushda g‘alabani ta’minlash uchun barcha resurslarni safarbar qilish imkonini berdi.

Adabiyotlar:

1. История социалистической экономики СССР. В 7 томах. Том 5. Советская экономика накануне в период Великой Отечественной войны. 1938–1945 гг. – Москва: Наука, 1978. – 562 с.

2. Сборник указов, постановлений, решений, распоряжений и приказов военного времени. 1941–1942 гг. – Ленинград, 1942. – 271 с.

3. *Бахов А.С., Давидович А.М., Дорохова Г.А.* Советское государство и право накануне и в годы Великой Отечественной войны (1936**–**1945 гг.). – Москва: Наука, 1985. – 358 с.

4. Андижон вилояти давлат архиви, 127-фонд, 1-рўйхат, 128-иш.

5. *Плотников К.Н.* Очерки истории бюджета Советского государства. – Москва: Госфиниздат, 1955. – 556 с.

6. *Толкушкин А.В.* История налогов в России. Учебное пособие. – Москва: Юристъ, 2001. – 478 с.

7. Андижон вилояти давлат архиви, 127-фонд. 1-рўйхат, 205-иш.

8. Андижон вилояти давлат архиви, 127-фонд, 1-рўйхат, 177-иш.

9. *Вознесенский Н.А*. Военная экономика в период Отечественной войны. – Москва: Госполитиздат, 1948. – 192 с.

10. *Чадаев Я.Е*. Экономика СССР в годы Великой Отечественной войны (1941–1945 гг.). – Москва: Мысль, 1985. – 494 с.

11. *Кравченко Г.С*. Военная экономика СССР 1941–1945. – Москва: Воениздат, 1963. – 398 с.

12. Андижон вилояти давлат архиви, 127-фонд, 1-рўйхат, 136-иш.

13. *Солдатенко Е.И*. Трудовой подвиг советского народа в Великой Отечественной войне. – Москва: Госполитиздат, 1954. – 295 с.

TAX POLICY IN THE SOVIET STATE DURING THE SECOND WORLD WAR

Muzrob G. Abdullaev[1], Shuhrat A. Toshmatov[2]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 3(71). 49-56.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz
[2] Kokand State Pedagogical Institute, Kokand, 150700, str. Turon, 23 (Uzbekistan). E-mail: kdpi@mail.ru

Keywords: *tax, tax policy, state budget, military tax, agricultural tax, income tax, taxpayer, collective farmer, individual farm, military man, self-taxation.*

The Second World War radically changed the economy of the Soviet country and forced the Soviet leadership to make important changes in the financial and tax policy. In connection with the war, the state budget revenues were 180 billion in 1940. 165 billion rubles in 1942. decreased by 158 billion rubles, including the income of socialist production. 108 billion rubles. decreased to rubles.

The expenditure part of the state budget in 1942 was 174.3 billion in 1940. 182.8 billion rubles. increased to rubles. In particular, military expenses are 56.7 billion. 108.4 billion rubles. increased to rubles. The missing funds for these expenses were covered by money issuance and the use of state reserves. The need to find additional funds to finance military expenses forced the government to sharply increase the share of taxes in the income of the State budget of the USSR. The increase in tax revenues in the state budget was achieved by strengthening the responsibility of the population for tax payments, increasing tax rates, expanding the range of taxpayers, and changing the principles of full and accurate accounting of taxable income.

A special military tax was introduced by the Decree of the Presidium of the Supreme Soviet of the USSR on December 29, 1941 “On Military Tax”. This tax was required to be paid by all citizens of the USSR who reached the age of 18 (regardless of whether they had sources of income or not). Exceptions are made for the elderly (men aged 60 and over and women aged 55 and over) and pensioners, who pay military tax only if they have independent sources of income. Soldiers, officers, family members of servicemen, people receiving state pensions, disabled people of the first and second group are exempted from paying military tax.

The amount of the agricultural tax has increased in line with the increase in food prices. Currently, the agricultural tax is determined by whether the family has a conscript or not. If two or more people from one family were taken into military service, this family was completely exempted from the agricultural tax.

The decision of the Soviet of People’s Commissars of the USSR dated August 1, 1945 “On preserving tax benefits for those demobilized from the Red Army and their family members” was a special attention of the government for the war participants. According to this decision, the previous benefits introduced under the Agricultural Tax Act for the families of war returnees were preserved.

During the war years, the population paid various funds and contributions to the Red Army Fund and the Defense Fund. In 1941-1945, 111.7 billion rubles of public funds were allocated to the budget. In addition, the government has attracted huge funds from the population for military needs at the expense of public bonds. During the war, the amount of taxes collected from the population increased by 4.2 times, and the taxes collected from state organizations increased by only 21.4 percent. The need to mobilize funds from budget revenues to finance military expenses in wartime conditions prompted the government to increase the share of taxes in the budget, in particular, at the expense of payments from the population. During the war years, 133 billion rubles of taxes and various fees were paid by the population throughout the country, which was 11.9% of all budget revenues.

References:

1. Gladkov, I.A. (ed.) (1978) Istoriya socialisticheskoj ekonomiki SSSR. *Sovetskaya ekonomika nakanune v period Velikoj Otechestvennoj vojny. 1938-1945 gg*. [History of the socialist economy of the USSR. The Soviet economy on the eve of the Great Patriotic War. 1938-1945]. In 7 volumes. Vol. 5. Moscow: Nauka.

2. Ponomaryov, N. (ed.) (1942) *Sbornik ukazov, postanovlenij, reshenij, rasporyazhenij i prikazov voennogo vremeni. 1941-1942 gg*. [Collection of decrees, resolutions, decisions, orders of wartime. 1941-1942]. Leningrad.

3. Bahov, A.S., Davidovich, A.M., Dorohova, G.A. (1985) *Sovetskoe gosudarstvo i pravo nakanune i v gody Velikoj Otechestvennoj vojny* (1936-1945 gg.) [The Soviet state and law on the eve and during the Great Patriotic War (1936-1945)]. Moscow: Nauka.

4. Andijon viloyati davlat arxivi [State Archive of Andijan region]. Fund -127. List – 1, File -128.

5. Plotnikov, K.N. (1955) *Ocherki istorii byudzheta Sovetskogo gosudarstva* [Essays on the history of the budget of the Soviet state]. Moscow: Gosfinizdat.

6. Tolkushkin, A.V. (2001) *Istoriya nalogov v Rossii* [History of taxes in Russia]. Moscow: Yurist.

7. Andijon viloyati davlat arxivi [State Archive of Andijan region]. Fund -127. List – 1, File – 205.

8. Andijon viloyati davlat arxivi [State Archive of Andijan region]. Fund -127. List – 1, File – 177.

9. Voznesenskij, N.A. (1948) *Voennaya ekonomika v period Otechestvennoj vojny* [Military economy during the Patriotic War]. Moscow: Gospolitizdat.

10. Chadaev, Y.E. (1985) *Ekonomika SSSR v gody Velikoj Otechestvennoj vojny* (1941-1945 gg.). [Economy of the USSR during the Great Patriotic War (1941-1945)]. Moscow: Mysl.

11. Kravchenko, G.S. (1963) *Voennaya ekonomika SSSR 1941-1945*. [Military economy of the USSR 1941-1945]. Moscow: Voenizdat.

12. Andijon viloyati davlat arxivi [State Archive of Andijan region]. Fund -127. List – 1, File – 136.

13. Soldatenko, E.I. (1954) *Trudovoj podvig sovetskogo naroda v Velikoj Otechestvennoj vojne* [Labor feat of the Soviet people in the Great Patriotic War]. Moscow: Gospolitizdat.

Mualliflar haqida ma'lumot:

ABDULLAYEV Muzrobjon G'ulomovich – tarix fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi professori. E-mail: muzrobjon@list.ru

TOSHMATOV Shuhratjon Abduqosimovich – Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi katta o'qituvchisi. E-mail: toshmatov_shuhrat@mail.ru